

“SIROJ UL-MUSLIMIN” ASARIDA RO‘ZA MASALALARINING BAYONI

Hamrayeva Nargiza Hasan qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14771585>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Siroj ul-muslimin” asari mazmun-mohiyati, ro‘za ibodati masalalari bayon etiladi. Asarda ro‘zaning ahamiyati, uning diniy va ma’naviy maqsadlari, shuningdek, ro‘za sababli inson nafsini tiyish va taqvoni oshirish kabi jihatlar yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: Siroj ul-muslimin, ro‘za, diniy ibodat, nafs, taqvo, ma’naviy poklanish, axloq, ijtimoiy ahamiyat, sabr-toqat, ramazon, diniy tarbiya.

EXPLANATION OF THE ISSUES OF FASTING IN THE WORK

“SIRĀJ UL-MUSLIMIN”

Abstract. This article describes the content and essence of Alisher Navoi’s work “Sirāj ul-Muslimin”, issues of fasting worship. The work highlights the importance of fasting, its religious and spiritual goals, as well as aspects such as restraining the human soul and increasing piety due to fasting.

Keywords: Sirāj ul-Muslimin, fasting, religious worship, soul, piety, spiritual purification, morality, social significance, patience, Ramadan, religious education.

РАЗЪЯСНЕНИЕ ВОПРОСОВ ПОСТА В ПРОИЗВЕДЕНИИ

«СИРАДЖ УЛЬ-МУСЛИМИН»

Аннотация. В данной статье описывается содержание и суть произведения Алишера Навои «Сирадж ул-Муслимин» и вопросы поста. В произведении подчеркивается важность поста, его религиозные и духовные цели, а также такие аспекты, как умение сдерживать свои желания и увеличивать благочестие благодаря посту.

Ключевые слова: Сирадж уль-Муслимин, пост, религиозное поклонение, личность, благочестие, духовное очищение, нравственность, социальная значимость, терпение, Рамадан, религиозное образование.

Ro‘za – har bir musulmon insonning muhim ibodatlaridan biri bo‘lib, nafaqat jismoniy balki ruhiy poklanishni ham ta’minlaydi. Ro‘za to‘g‘risida Qur’on, hadis, oilaviy muhitimizda va turli diniy manbalarda chuqur ma’lumotlar berilgan.

Shu jumladan, hazrat Navoiyning “Siroj ul-muslimin” asarida ham ro‘zaning ahamiyati va amaliy jihatlari keng yoritilgan. Ushbu dinimiz arkonlarining badiiy yo‘sinda mumtoz adabiyotimizni bezagan asardir.

Alisher Navoiyning “Siroj ul-muslimin” (“Musulmonlar nuri”) asari diniy-ma’rifiy yo‘nalishda bo‘lib, islom dini ahkomlarini yoritishga bag‘ishlangan. Asar hijriy 905, milodiy 1499 – 1500-yilda masnaviy shaklida yozilgan bo‘lib, hajman 208 baytdan iborat”¹.

“Siroj ul-muslimin”da hazrat Navoiy har bir musulmon kundalik hayotda bilishi zarur bo‘lgan masalalarni yoritishni maqsad qilib, islomning besh ruknini qisqacha tarzda o‘zbek tilida bayon etadi. Asar basmala bobi, kitobning yozilish sababi bayon etilgan bob, turli diniy mavzularga bag‘ishlangan 25 ta bob va xotimadan iborat.

Erur to‘rtinchi rukn Islomning savm²,

Ki o‘tgay kimsaga taqvo birla yavm.

Islomning to‘rtinchi rukni ro‘zadir. Bunda kishining kuni taqvo bilan o‘tadi. “Ro‘za arab tilida “savm” deyiladi. Savm — tiyilish, o‘zini ushlash degani. Ro‘zaning asosiy hikmatlaridan biri taqvo malakasini oshirishdir. Ro‘za hijriy qamariy yilning Ramazon oyida tutiladi. U hijratning ikkinchi yilida Baqara surasining 183-185-oyatlari bilan farz bo‘lgan”³.

Chu ro‘za farz bo‘ldi yilda bir oy,

Aning ijrosida bo‘l nafsarmoy.

Bu baytning mazmunida ro‘za nafaqat Allohning amri ekanini, balki uning ahamiyati nafsni tarbiya qilishda katta o‘rin ekanligini anglaymiz. Ramazon ro‘zasi musulmonlarga yilda bir marta taqvoni oshirish va o‘z havoyi nafsini bo‘ysundirish uchun buyurilgan. Ro‘za ibodati nafsni tiyish bilan birga, insonning sabr-matnatini mustahkamlaydi. Nafsni farmoyish qilish, ya’ni uni o‘z nazoratiga olish ro‘zadorning ruhiy kamolotiga hissa qo‘shadi. Shu sababli, ro‘zador faqat ochlik va chanqoqlikni boshdan kechirish bilan kifoyalanmay, balki yomon odatlardan, gunohlardan va so‘zlardan tiyilishi lozim. Ro‘za ibodati orqali inson ochlikning qadrini his qilib, qashshoqlar va muhtojlarga mehr-shafqat ko‘rsatishni o‘rganadi. U nafaqat jismoniy, balki ruhiy poklanish va Allohga yaqinlashish vositasi hamdir. Baytda ta’kidlanganidek, har bir musulmon ro‘zaning haqiqiy ma’nosini anglab, uni Allohga bo‘lgan itoat va muhabbat bilan ado etishi kerak. Ro‘za nafaqat ibodat, balki insonni ma’naviy yuksaltiruvchi vositadir.

¹ Sirojiddinov Sh. va boshqa. Navoiyshunoslik (1-kitob). Darslik. – Toshkent, 2019.

² Savm – arabcha ro‘za.

³ Hasanxon Yahyo Abdulmajid, Husaynixon Yahyo Abdulmajid. Navoiydan chu topqaylar navoye. – Toshkent: “Hilol-nashr, 2023. – 240. B.

*Ani bil subhdin to shom chog'liq,
Taomu shurbu shahvatdin yirog'liq.
Erur bu ro'zada niyat sanga farz,
Valekin kecha avlo, ayladim arz.*

Ushbu bayt mazmunidan ro'zaning asosiy shartlari va tartiblari haqida muhim saboqlar olishimiz mumkin. Baytda aytilishicha, ro'zaning vaqti subh sodiq (bomdod kirish vaqti)dan boshlanib, quyosh botguncha davom etadi. Shu vaqt davomida ro'zador inson:

- Ovqat yeyish va ichimlik ichishdan tiyilishi;
- Shahvat va boshqa yomon odatlardan uzoq bo'lishi;
- Nafsini nazorat qilib, yomon so'zlar va harakatlardan o'zini tiyişi shart.

Bu jihatlar ro'zaning nafaqat jismoniy, balki ma'naviy poklanish ibodati ekanini ko'rsatadi. Inson Allohga yaqinlashish uchun o'z nafsini tiyib, poklanadi va taqvosini oshiradi.

Baytda ro'zani ado etishda niyat qilish farz ekani alohida ta'kidlangan. Niyat insonga o'z amalining maqsadini anglatadi va uni faqat Alloh roziligi uchun bajarishiga yo'naltiradi. Shoirning "Valekin kecha avlo" degan so'zlari esa niyatni kechasi qilish afzal ekaniga ishora qiladi. Bu sunnatga muvofiq bo'lib, ibodatni tartibli va mukammal bajarishga yordam beradi.

*Navofilda vale niyatni qilmoq,
Sanga joizdurur tushtin burunroq.
Chibin yo pashshadek har jinsi hosil
Emas bug'zung'a kirsar, ro'za botil.
Tuzu sirka totarg'a ahli idrok
Tegursa til uchin, ermas anga bok.*

Birinchi misrada nafl ro'zalarda niyat qilish vaqti haqida so'z yuritadi. Nafl ro'zalarda niyatni subhdan keyin, peshindan oldin qilish joizdir. Bu Islomning yengillik va qulaylik tamoyiliga mos keladi. Farz ro'zalar uchun esa niyatni kechasi qilish afzal hisoblanadi. Niyatni vaqtida va samimiyat bilan ado etish ro'zaning qabul bo'lishida asosiy omillardan biridir.

Keyingi baytda esa, tasodifan burunga yoki og'izga chivin, chang, yoki boshqa kichik narsalar kirsar, bu ro'zani buzmaydi. Misol uchun, oddiy kundalik holatlarda havodagi zarrachalar burun yoki og'iz orqali o'tishi mumkin, ammo bu insonning ixtiyoridan tashqarida bo'lgan holat bo'lgani uchun ro'zaga zarar yetkazmaydi. Undan keyingi baytda esa, tuz yoki sirka kabi narsalar tasodifan til uchiga tegib qolsa, bu ro'zani buzmasligi haqida eslatma beradi.

Bunday kichik va bexosdan sodir bo'lgan holatlar ibodatning buzilmasligi uchun fiqhiy jihatdan qoidalarga muvofiqdir. Islom bandalarga ortiqcha qiyinchilik yuklamaslikni ko'zlaydi, shu sababli kichik holatlarga yengillik bilan qaraydi.

Mazkur bayt ro'zador uchun muhim bo'lgan sunnat va shartlarni o'rgatadi. Nafl ro'zada niyatni peshindan oldin qilish joizligi, tasodifiy holatlar ro'zani buzmasligi va kichik narsalarga bag'rikenglik bilan yondashish Islomning insonparvarligini namoyon etadi.

*Yana ulkim, hijomat qilsavu fasd,
G'am ermas, ro'zag'a chun qilmamish qasd.
Gar o'tmak tipl uchun chaynar anosi,
Ravodur gar yana yo'qtur g'izosi.*

Baytda aytilishicha, hijoma (qon oldirish) yoki fasd (qonni chiqarish) kabi muolajalarni ro'za vaqtida amalga oshirish joizdir. Bu holatda ro'zadorning maqsadi qasddan ovqat yoki ichimlik iste'mol qilish emas, balki sog'lig'ini tiklash bo'ladi. Shuning uchun bunday amallar ro'zani buzmaydi. Bu shariatning inson salomatligini muhim deb bilishini va ibodatni yengillik bilan ado etish imkonini beradi. Keyingi misrada bolasi uchun oziq moddalarni chaynab berish holati haqida so'z yuritiladi. Agar ona o'z bolasining oziqlanishi uchun boshqa iloji bo'lmasa va oziq moddalarni chaynashi zarur bo'lsa, bu holat joiz hisoblanadi. Bu ona va bola hayotiga zarar yetkazmaslik uchun berilgan shar'iy yengillikdir.

Ushbu bayt ro'za ibodatining nafaqat qat'iy qoidalarini, balki shariatning bandalarga bergan yengillik va ruxsatlarini ham ochib beradi. Hijoma yoki fasd kabi sog'liqni saqlashga oid amallar ro'zani buzmasligi, onaning bolasiga yordam ko'rsatishi uchun ruxsat etilishi shariatning insonparvarlik tamoyiliga asoslanganini ko'rsatadi. Ushbu hukmlar musulmonlarga ibodatni mukammal va qulay shaklda ado etish imkoniyatini beradi.

*Vale bilmak keraktur oni makruh,
Kerak makruhdin xotirda ahduh.
Unutib gar esang, ichsang emas g'am,
Erur ul ro'za boqiy, ey mukarram.*

Birinchi misrada ro'zador uchun makruh hisoblangan amallardan saqlanish muhimligini eslatadi. Makruh amallar ro'zani buzmasa-da, uning mukammalligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ro'zador ushbu nojoiz odatlarni o'z xotirasida saqlashi va ulardan tiyilishi kerak. Bunday ehtiyotkorlik ro'zadorning ibodatni chin yurakdan ado etishiga yordam beradi. Baytning ikkinchi qismida ro'zadorning unutib ovqat yeyishi yoki suv ichishi haqida so'z boradi.

Bunday holatlarda roʻza buzilmasligini va roʻzadorning gʻam qilishi shart emasligini taʼkidlanadi. Chunki bunday xatti-harakatlar ixtiyoriy emas, balki bexosdan sodir boʻladi. Ushbu qoidalar roʻzador uchun Allohning rahmati va yengilligini koʻrsatadi. Mazkur bayt roʻzadorning ibodatni mukammal ado etishi uchun muhim koʻrsatmalardan birini oʻrgatadi. Makruh amallardan saqlanish, shuningdek, unutib yeyish yoki ichish holatlarida gʻam qilmaslik roʻzaning insonparvarlik va yengillik tamoyillariga asoslanganini namoyon qiladi. Bu esa roʻzadorni Allohga yaqinlashish yoʻlida ruhiy va maʼnaviy yuksalishga undaydi.

Tutmay oʻtkazib yuborilgan roʻzaning kafforati

“**Kafforat**” – oʻchiruvchi omil degan maʼnoni bildiradi. Sharʼiy istilohda biror jinoyatni yuvish uchun jarima maʼnosida qilinadigan amal, toʻlov, evaz kafforat deyiladi”⁴.

*Agar beboklik oyini tuzdung,
Gʻizoning gʻayri birla roʻza buzdung.
Qazosi birga birdin ortuq ermas,
Fuzungʻa shar ruxsat, bilki, bermas.*

Birinchi misrada bexosdan yoki nooʻrin harakatlar bilan roʻzani buzish holatiga eʼtibor qaratilgan. Agar roʻzador gʻayri-sharʼiy munosabatda boʻlsa yoki boshqa harakatlar tufayli roʻzani buzsa, bu uning ibodatini buzadi. Bu holat faqat roʻzani buzish bilan cheklenmaydi, balki bu harakat shariat nuqtayi nazaridan ham xato hisoblanadi. Keyingi misrasi roʻzani buzgan kishi uchun qazo oʻtkazish zarurligini taʼkidlaydi. Agar roʻza sababsiz yoki nooʻrin buzilgan boʻlsa, oʻtkazilgan kunni qaytarish uchun roʻza tutish kerak. Biroq, roʻzani buzgan shaxsning faqat bir kunlik qazosini bajarish kifoya qilmaydi, unda roʻzani toʻgʻrilash uchun qonuniy yoʻllari mavjud. Roʻzani buzish bilan bogʻliq hollarda sharʼiy ruxsatlar mavjud, ammo roʻzaning qazosini oʻtkazish uchun alohida ehtiyotkorlik va sabr kerak. Shariat roʻzaning toʻgʻri qoplanishi uchun aniq yoʻllar koʻrsatgan boʻlib, roʻzador toʻgʻri yoʻldan borishi zarur.

Mazkur bayt roʻzani buzish va uning qazosini oʻtkazish bilan bogʻliq muhim sharʼiy hukmlarni yoritib berilgan. Roʻzador sababsiz yoki nooʻrin roʻza buzsa, bu xato roʻzaning qayta oʻtkazilishi bilan qoplanadi. Islomda har bir xato va kamchilik uchun belgilangan qoidalarga amal qilish orqali toʻgʻri yoʻldan borish va Allohning roziligiga erishish mumkin.

*Gʻizo yeb, roʻza ulkim qilsa zoyil,
Va yo nafsi boʻlib shaxvatqa moyil.*

⁴ Hasanxon Yahyo Abdulmajid, Husayinxon Yahyo Abdulmajid Navoiydan chu topqaylar navoye. – Toshkent: “Hilol-nashr”, 2023. – 240. B.

*Kafforat oltmish misinga itom
Erur yo oltmish kun savmi nokom,
Kim, ul kunlarning o'lg'ay ittisoli,
Yo'q ersa solim ermas ro'za holi.
Va yo bir bandaning ko'nlim qilib shod,
Ani Tengri yo'lida qilmoq ozod.*

Agar ro'za buzilgan bo'lsa, shariatda uning kafforati sifatida ikkita asosiy yo'l belgilangan. Birinchisi – 60 misinga ovqat berish, ya'ni 60 kishi uchun bir kunlik ovqat tayyorlash. Ikkinchisi – 60 kunlik ro'za tutish. Shoir bu ikki variantdan birini tanlashni tavsiya qiladi. Shoir, agar 60 kunlik ro'zalar bir-birining ortidan o'tkazilsa, ro'zaning kafforati to'liq bo'ladi. Oxirgi misrada shoir, bir kishi uchun ro'za va uning kafforatini amalga oshirishda, bandaning xohishi va maqsadi muhimligini ta'kidlangan. Bu ozodlik va Allohning yo'li uchun harakat qilishni anglatadi.

Ushbu baytlar ro'zaning buzilishi va uning qoplashida aniq belgilangan shariat hukmlarini ochib beradi. Ro'zani buzgan kishi uchun kafforat sifatida 60 misinga ovqat berish yoki 60 kun ro'za tutish mumkin, ammo bu amalni to'g'ri bajarish va ro'zaning hukmlariga rioya qilish zarur.

Islomda ro'zani buzishning oqibatlarini belgilangan bo'lib, har bir harakat Allohning roziligiga erishish yo'lida amalga oshirilishi shart.

“Siroj ul-muslimin” ro'zaning barcha jihatlari, jumladan, uning shartlari, niyati, makruh amallari va qoplash (qazo) talablariga alohida e'tibor qaratilgan diniy-ma'rifiy asardir. Kitobda ro'zani saqlashda nafaqat jismoniy ehtiyojlar, balki ruhiy poklanish va diniy axloqiy tozalik ham muhim ekanligi ko'rsatilgan. Shuningdek, ro'zaning buzilishiga olib keluvchi harakatlar (masalan, bexosdan yeyish yoki ichish) va ularni qanday to'g'rilash masalalari ham keng yoritilgan. Asar, shuningdek, ro'zadorning muomala va ma'naviy holatini ham inobatga olgan holda, uning to'g'ri o'tkazilishi uchun zarur bo'lgan barcha shartlarni tushuntiradi. Bu asar ro'za ibodatining mukammal ado etilishi uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallashga yordam beradi va musulmonlarni ro'zani ado etishdagi yengillik va ehtiyotkorlikka chaqiradi.

REFERENCES

1. Hasanxon Yahyo Abdulmajid, Husayinxon Yahyo Abdulmajid “Navoiydan chu topqaylar navoye”. – Toshkent: “Hilol-nashr”, 2023. – 240. B.
2. Sirojiddinov Sh. va boshqa. Navoiyshunoslik (1-kitob). Darslik. – Toshkent, 2019.
3. Alisher Navoiy. Siroj ul-muslimin. – Toshkent: Fan, 2000.